

HUQUQIY MADANIYAT VA UNI OSHIRISHDA YOSHLARNING O'RNI.

Maftuna Bekbo'tayeva O'tkir qizi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada huquqiy madaniyat tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va jamiyat hayotidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida huquqiy madaniyatni yuksaltirishning huquqiy asoslari, xususan, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunning moddalariga sharh berilgan. Unda yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida yoritilib, ularni amalga oshirishda ta'lim muassasalari, davlat organlari hamda jamoat tashkilotlarining roli ko'rsatib berilgan. Maqolada, shuningdek, yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishdagi ishtiroki, mavjud muammolar va ularning yechimlari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ishlab chiqilgan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dastur to'g'risida" Qarorining ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, chet davlatlar tajribasi o'rganilib, milliy qonunchiligimiz bilan qiyosiy tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *huquqiy madaniyat, huquqiy ong, yoshlar, davlat siyosati, huquqiy savodxonlik, ta'lim, qonun ustuvorligi, fuqarolik jamiyati, huquqiy ta'lim, huquqiy islohotlar, xalqaro tajriba.*

Bugungi globallashuv sharoitida har bir davlatning barqaror rivojlanishi, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayoni bevosita fuqarolarning huquqiy madaniyat darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Huquqiy madaniyat insonning huquqiy ongini, huquqiy bilimini va huquqiy xulq-atvorini o'z ichiga oluvchi murakkab ijtimoiy hodisadir. Shu boisdan O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar jarayonida yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasi, qonunlari va Prezidentimiz tashabbuslari yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga ko'tardi. Bu esa o'z navbatida, jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan, huquqlarini yaxshi biladigan, majburiyatlarini ongli ravishda ado etadigan huquqiy ongli yoshlarni tarbiyalashni talab etadi.

Huquqiy madaniyat – bu jamiyat va shaxsning huquqqa hamda huquqiy hodisalarga bo'lgan munosabatini belgilovchi, huquqiy bilimlar, qadriyatlar va xulq-atvor me'yorlari majmuasidir. U bir necha tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular huquqiy ong, huquqiy bilim va huquqiy xulq-atvorda namoyon bo'ladi. Huquqiy ong shaxsning huquqiy hodisalarni anglash darajasini, huquqiy qadriyatlarni qabul qilish va ularga amal qilish jarayonini ifodalaydi. Huquqiy bilim esa Konstitutsiya, qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazmunini puxta bilish va ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini anglatadi. Shuningdek, huquqiy xulq-atvor esa huquqiy normalarga ongli ravishda rioya etish, qonunlarga hurmat bilan qarash va jamiyatda tartib-intizomni ta'minlashda faol ishtirok etish bilan belgilanadi.

Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi huquqiy davlatning shakllanishiga, jamiyatda qonun ustuvorligining qaror topishiga va adolat tamoyillarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Aksincha, huquqiy bilim va ongning yetarli emasligi turli huquqbuzarliklarning ko'payishiga, korrupsion holatlarning yuzaga kelishiga hamda qonunlarga bepisand munosabat shakllanishiga sabab bo'ladi. Shu bois, huquqiy madaniyatni yuksaltirish har bir jamiyatning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, u huquqiy davlat qurilishining muhim sharti hisoblanadi.

O'zbekistonda yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalasi Konstitutsiyada ham, maxsus qonunlarda ham o'z aksini topgan. Jumladan, 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida "Har kim ta'lim olish huquqiga ega" ekani belgilab qo'yilgan. Ushbu norma nafaqat umumiy bilim olish, balki shaxsning huquqiy bilim va savodxonlik darajasini oshirish uchun ham mustahkam konstitutsiyaviy asosdir. Chunki huquqiy ta'lim – jamiyatda qonuniylik, huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Shu moddaning keyingi qismida davlat uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim va tarbiya uchun shart-sharoitlar yaratish, bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlash majburiyati belgilangan. Bu esa yoshlarning huquqiy savodxonligini bolalikdan boshlab shakllantirish imkoniyatini kengaytiradi. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'limning majburiyligi hamda ta'lim jarayonida inklyuzivlikning kafolatlanishi har bir shaxs, shu jumladan huquqiy madaniyatni egallashda ortda qolmasligi uchun muhim imkoniyatdir.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunida ham yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalasi alohida e'tiborga olingan. Jumladan, ushbu qonunning 8-moddasida davlat organlarining yoshlar sohasidagi vakolatlari belgilangan bo'lib, unda Adliya vazirligi zimmasiga "yoshlarning huquqiy bilimini oshirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish" vazifasi yuklatilgan.

Mazkur norma davlat organlarining yoshlar o'rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish bo'yicha tizimli faoliyat yuritishini huquqiy jihatdan kafolatlaydi. Xususan, Adliya vazirligi tomonidan maktablarda, kollej va texnikumlarda hamda oliy ta'lim muassasalarida muntazam ravishda "Huquqiy savodxonlik oyligi", "Huquqiy bilimlar bellashuvi", "Konstitutsiya – baxtimiz poydevori" kabi targ'ibot-tashviqot tadbirlari o'tkazib kelinmoqda. Ushbu tadbirlar yoshlarning qonunchilikdagi yangiliklardan xabardor bo'lishiga, huquqiy hujjatlar bilan ishlash ko'nikmalarini egallashiga hamda o'z huquq va majburiyatlarini anglash darajasini oshirishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, qonunda belgilangan mazkur vazifalar asosida Adliya vazirligi qoshida turli ijtimoiy loyihalar va elektron platformalar ham yo'lga qo'yilgan. Masalan, yoshlar uchun mo'ljallangan mobil ilovalar, huquqiy maslahat markazlari va interaktiv xizmatlar orqali huquqiy axborotning tezkor va qulay shaklda yetkazilishi

ta'minlanmoqda. Natijada, qonunning ushbu moddasi nafaqat qog'ozda qolib ketmay, balki huquqiy tarbiya va ta'limni amaliyotda keng qo'llash imkonini yaratmoqda.

Shu tariqa, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasi yoshlarning huquqiy bilimini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning uzluksiz va tizimli ravishda amalga oshirilishi uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi"ni ishlab chiqish tashabbusi mamlakatimizda huquqiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolarning huquqiy ongi va savodxonligini oshirishga qaratilgan muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur tashabbus doirasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorda jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirishning asosiy maqsad va vazifalari belgilab berilgan. Jumladan, aholining barcha qatlamlari, xususan, yoshlar o'rtasida huquqiy bilimlarni keng targ'ib qilish, huquqiy ong va huquqiy tafakkurni shakllantirish, huquqiy ta'limni zamon talablari asosida tashkil etish dasturiy vazifa sifatida qayd etilgan. Qarorda, shuningdek, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligida huquqiy targ'ibot va ma'rifat ishlarini samarali tashkil etish mexanizmlari ham ko'rsatib o'tilgan.

Dasturga muvofiq, ta'lim muassasalarida huquqiy fanlarni zamonaviy metodlar asosida o'qitish, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish uchun maxsus qo'llanmalar, interaktiv platformalar yaratish, huquqiy mavzularda turli tanlov va musobaqalarni o'tkazish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, milliy ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy bilimlarni targ'ib etish orqali aholining keng qatlamiga huquqiy axborot yetkazish mexanizmlarini kuchaytirish ham ushbu dasturda belgilangan eng muhim yo'nalishlardan biridir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish bilan birga, jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Zero, huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan jamiyatda qonun ustuvorligi ta'minlanadi, huquqbuzarliklarning oldi olinadi va yosh avlodda qonunlarga hurmat ruhida tarbiya shakllanadi.

Yoshlar – jamiyatning eng faol va harakatchan qatlami sifatida huquqiy islohotlarni amalga oshirishda, huquqiy qadriyatlarni keng targ'ib qilishda hamda huquqiy davlat qurilishida muhim kuchga ega. Ularning huquqiy madaniyatni yuksaltirishdagi o'rni turli yo'nalishlarda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, ta'lim tizimi yoshlarning huquqiy bilimlarini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Maktab, litsey, kollej va oliygohlarda huquqiy fanlarning muntazam o'qitilishi natijasida yoshlarda Konstitutsiya va qonunlarga nisbatan hurmat, qonunlarga rioya etish madaniyati shakllanadi. Shuningdek, huquqiy fanlarni zamonaviy usullar orqali o'qitish – interaktiv darslar, huquqiy viktorinalar va bellashuvlar yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishda samarali omil bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy faoliyat ham yoshlarning huquqiy ongini shakllantirishda muhimdir. O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, turli volontyorlik harakatlari va huquqiy klublar orqali yoshlar jamiyatda huquqiy targ'ibot ishlarini olib borishda faol ishtirok etadi. Masalan, ular turli tadbirlar, seminarlar va huquqiy marafonlarda qatnashib, nafaqat o'z huquqiy bilimlarini oshiradi, balki tengdoshlariga ham huquqiy ma'lumotlarni yetkazadi.

Uchinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalari yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va internet platformalari orqali yoshlar huquqiy kontent ishlab chiqib, jamiyatda huquqiy ongni oshirishga bevosita hissa qo'shmoqda. Masalan, qisqa videoroliklar, grafik dizayn asosida tayyorlangan huquqiy ma'lumotlar yoki onlayn maslahatlar yoshlar orasida qonunchilikka qiziqishni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, yoshlarning mustaqil o'qishi va huquqiy adabiyotlardan foydalanishi ham huquqiy madaniyatni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Kitobxonlik, qonun hujjatlari bilan muntazam tanishib borish, huquqiy ma'lumotlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasi yoshlarda mustahkam huquqiy ongni shakllantiradi.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, ko'plab davlatlarda yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, AQShda esa "Civic Education" (Fuqarolik ta'limi) dasturi orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilim oladilar, balki sud jarayonlari simulyatsiyalarida bevosita ishtirok etib, amaliy tajribaga ham ega bo'ladilar. Bunday tajribalar yoshlarning huquqiy mas'uliyatini oshiradi, ularni kelgusida jamiyatning faol fuqarosi bo'lishga tayyorlaydi.

Rossiyada esa "Yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish konsepsiyasi" qabul qilingan bo'lib, u yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirishga qaratilgan kompleks dastur sifatida faoliyat yuritmoqda. Ushbu konsepsiya orqali ta'lim, ijtimoiy faoliyat va huquqiy targ'ibot tadbirlari uyg'unlashtirilib, yoshlarning huquqiy savodxonligi izchil oshirilmoqda.

O'zbekiston ham ushbu ilg'or tajribalarni o'z milliy sharoitidan kelib chiqib qo'llashi mumkin.

Masalan, AQShdagi kabi maktablarda huquqiy jarayonlarni amaliy mashg'ulot sifatida o'tkazish yoki Rossiya tajribasidagi kabi kompleks dasturlarni joriy etish huquqiy bilimlarni yanada samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Bu esa yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirib, jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Huquqiy madaniyat – bu faqat qonunlarni bilish emas, balki ularni ongli ravishda amalda qo'llash, huquqqa hurmat bilan qarash va jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashdir.

Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish esa huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu boisdan huquqiy ta'limni yanada takomillashtirish, huquqiy targ'ibot va tashviqotni samarali yo'lga qo'yish, yoshlarning huquqiy faolligini qo'llab-quvvatlash orqali jamiyatimizda yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish mumkin.

Zero, huquqiy madaniyati yuksak yoshlar – huquqiy davlat poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonuni, 2016-yil 14-sentabr, O'RQ-406-son.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi”ni ishlab chiqish tashabbusi. – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari, 2019.
4. Adliya vazirligi materiallari: www.minjust.uz
5. Rossiya Federatsiyasi “Yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish konsepsiyasi”, Moskva, 2014.
6. Civic Education Resources, USA. – www.civiced.org